



Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 07.06.2022 г. № 7/06

между "Рахмон" МЧЖ и Пастдаром туман МТБ на общую сумму 564740000,00

Глава  
Казначейский лицевой счёт

251

100022860182277091100251118

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4354910			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь	564 740 000,00			564 740 000,00
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>564 740 000,00</b>			<b>564 740 000,00</b>

Всего 564740000,00 сум

Пятьсот шестьдесят четыре миллиона семьсот сорок тысяч сум  
00 тийин  
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 169422000,00 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в июне мес. 2022 г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца.  
(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика

Бекова Машхура Э.

Ф.И.О.

(подпись)

М.П.



Главный бухгалтер заказчика

Г.Яркулов

Ф.И.О.

(подпись)

Принял работник казначейского подразделения

Получил работник  
заказчика

(подпись)

(подпись)

«\_\_\_» 20 \_\_\_ г.

«\_\_\_» 20 \_\_\_ г.

**OLDI-SOTDI SHARTNOMASI № 7/06**  
**Lot № 84647**

Juma shahri

«07» iyun 2022 yil

RAXMON MCHJ keyingi o‘rinlarda ”Sotuvchi” deb yuritiladi. O‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi X.Tolibov nomidan, bir tomondan va Pastdarg‘om tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi keyingi o‘rinlarda ”Sotib oluvchi” deb yuritiladi, O‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi M.Bekova nomidan, ikkinchi tomondan mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Sotuvchi o‘ziga tegishli bo‘lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spetsifikatsiyaga asosan Sotib oluvchiga mulk qilib topshirish, Sotib oluvchi esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini oladi.

Nº	Tovarlarning nomi	O‘Ichov birligi	Miqdori	Birlik uchun shartnoma narxi (QQS bilan)	Shartnomaning umumiyligi (QQS bilan)
1	Bolalar krovati	dona	205	1250000	256250000
2	Stol 1 tumbali	dona	7	850000	5950000
3	Oshxona jixozlari o‘yinlar jamlanmasi	dona	3	1420000	4260000
4	Shifoxona jixozlari o‘yinlar jamlanmasi	dona	3	1420000	4260000
5	Sartaroshxona jixozlari o‘yinlar jamlanmasi	dona	3	1420000	4260000
6	Malvina jixozlari o‘yinlar jamlanmasi	dona	3	1420000	4260000
7	Supermarket jixozlari o‘yinlar jamlanmasi	dona	3	1420000	4260000
8	O‘yinchoqlar javoni	dona	45	1418000	63810000
9	Stul ya/yu turon	dona	8	100000	800000
10	Bolalar stuli	dona	335	90000	30150000
11	kiyimlar uchun 5 xonali shkaf	dona	78	1260000	98280000
12	Bolalar stol-stuli	komplekt	126	700000	88200000
<b>Jami :</b>					<b>564740000</b>

### 2. TO‘LOV SHARTLARI

- 2.1. Ushbu Shartnomaning umumiyligi summasi (QQS bilan) **564740000** (**Besh yuz oltmishto`rt million yetti yuz qirq ming**) so‘mni tashkil etadi.
- 2.2. Sotib olinadigan Tovar (mahsulot) uchun oldindan to‘lov miqdori 30% ni tashkil qiladi.
- 2.3. To‘lov shakli naqd pulsiz pul ko‘chirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

### 3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 3.1. Sotuvchining majburiyatları:
  - 3.1.1. Tovar (mahsulot)ni Shartnoma talablariga javob beradigan holatda Sotib oluvchiga o‘z vaqtida topshirish.
  - 3.1.2. Tovar (mahsulot)larning sifati ushbu guruhi uchun amaldagi standartlarga muvofiq kelishi kerak.
  - 3.1.3. Sotuvchi to‘plamda yaroqsiz, sifati lozim darajada bo‘limgan tovarlar (mahsulot) mavjudligi haqida xabar olgan paytdan boshlab 3 kun ichida sifatsiz tovar (mahsulot)ni sifatlisiga almashtirish yoki ushbu Shartnomaning 1.2.-bandiga muvofiq sifati lozim darajada bo‘limgan tovarning pulini qaytarib beradi.
  - 3.1.4. Sotuvchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq tovar (mahsulot)ga bo‘lgan kafolat muddatlarini taqdim etadi.
- 3.2. Sotib oluvchining majburiyatları:
  - 3.2.1. Qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda ushbu Shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda tovari miqdori, sifati va butlanishi bo‘yicha qabul qilib oladi.
  - 3.2.2. Sifati lozim darajada bo‘limgan tovar keltirilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu tovarning sifati lozim darajada emasligi haqida dalolatnomasi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 3 kun ichida sotuvchini xabardor qiladi.
  - 3.2.3. Shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va muddatda tovar haqini to‘lash

#### **4. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH**

- 4.1 Tomonlarning Shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.
- 4.2. Shartnoma qonunchilik o'zgarganda, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

#### **5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

- 5.1. Tovarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga etkazilgan zararni to'liq qoplaydi va quyidagi miqdorda jarima to'laydi:
- 5.2. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, "Sotuvchi""Sotib oluvchi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
- 5.3. Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, "Sotib oluvchi" tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, "Sotuvchi" sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan tovarlar (ishlар va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlар va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan tovarlar (ishlар, xizmatlar) yetkazib bergenlik uchun jarima "Sotuvchi" akseptsiz tartibda undirib olinadi.
- 5.4. Etkazib berilgan tovarlar (ishlар, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun "Sotib oluvchi""Sotuvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.
- 5.5 Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek "Sotuvchi" shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun "Sotib oluvchi" "Sotuvchi"ga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.
- 5.6. Neustoykani to'lash taraflarni Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.
- 5.7. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida etkazib berilgan tovar mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq tovar etkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

#### **6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

- 6.1. Mazkur Shartnoma **2022 yil «07» iyundan 2022 yil «31» dekabrgacha amal qiladi.**
- 6.2 Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.
- 6.2. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:
- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
  - O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.
  - Fors-Major holatlarda

#### **7. NIZOLARNI HAL QILISH**

- 7.1. Taraflar Shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirlarida O'z.R. Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.
- 7.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'z.R. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sud tartibida hal qilinadi
- 7.3. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda barcha masalalar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi, kelishish imkon bo'limganda Iqtisodiy sudda hal qilinadi.

## **8.FORS – MAJOR**

8.1. Taraflardan biri Shartnomaning yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulotda muayyan sharoitida oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoiti, hukumat tadbirlari, hokimiyat organlarining qarorlari, harbiy nizolari, ichki tartib-buzarliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors-major tufayli bajirilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo‘lmaydi.

8.2. Mazkur Shartnoma bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari faoliyatining Shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risidagi” gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonunlari talablari bo‘yicha javobgar bo‘ladi.

## **9. BOSHQA SHARTLAR**

9.1. Mazkur Shartnomaga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘srimchalar yozma shaklda tuzilishi va har ikkala taraflar orqali imzolanishi kerak.

9.2 Shartnomani taraflarning o‘zaro kelishuviga asosan yoki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to‘lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

9.3 Mazkur **567740000** so‘mlik, № 6/06-sonli Shartnoma 2022 yil «07» iyunda 2 nusxada tuzilgan Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, Pastdarg‘om tumani bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng qonuniy kuchga kiradi.

## **10. KORRUPSIYAGA QARSHI QO‘SHIMCHA SHARTLAR**

10.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, shartnoma bilan bog‘liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

10.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo‘yicha hamkorlikni ta’minlaydilar.

10.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o‘zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog‘liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo‘l qo‘yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va’da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdaagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagи harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko‘radi.

10.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiylar, shuningdek o‘zlarining ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali)sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish,soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko‘rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagи ustunlikka ega bo‘lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va’da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma’lum bo‘lsa, uni o‘tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo‘li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilagini yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir qilish uchun ta’magirlik qilish, undash, tazyiq o‘tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo‘yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

10.5. Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o‘tkazishda bitimlar tuzish bo‘yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo‘lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko‘zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlarga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart:

- korrupsiyaviy harakatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi shartligi haqida ko‘rsatmalar va tushuntirishlar berish;
- ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;
- ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;
- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to‘lovlarni amalga oshirmsaslik.

10.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o‘tkazilmasligini kafolatlaydilar.

10.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shartlarning 10.4- va 10.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi ma’lum bo‘lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo‘yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo‘yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilmagan yoki ko‘rib chiqish natijalari haqida xabardor qilмаган taqdirda, ushbu taraf zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqlidir.

## **11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI**

«Ijrochi»

**RAXMON MCHJ**

(mol etkazib beruvchining nomi)

Manzil: Urgut tumani, Mergancha maxallasi

Tel./faks

h/v; 20208000900377088001

Hamkorbank ATB Urgut filiali

MFO 01157, STIR 202190272

Rahbar: X.Tolibov

M.O.



(imza)

«Buyurtmachi»

**Pastdarg‘om tuman maktabgacha ta’lim  
bo‘limi**

(byudjetdan mablag‘ oluvchining nomi)

Manzil: Pastdargom tumani, Juma sh.,

X.Olimjon ko‘chasi, 14-uy

Tel./faks (66) 465-15-16

sh/h 100022860182277091100251118

byudjetdan mablag‘ oluvchi STIRI 207266924  
OKONX

Pastdarg‘om tumani bo‘yicha G‘aznachilik  
bo‘linmasi

G‘azna h/v 23402000301100001010

Bankning nomi Tosh.sh Markaziy bank KXXM  
MFO 00014

g‘aznachilik bo‘linmasi STIR 201122919

Rahbar: M.Bekova



# **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO`G`RISIDA HUQUQIY XULOSA**

**№ RG4127800013**

**1. Loyihaning turi. shartnoma**

**2. Loyihaning nomi.**

**“№7/06 sonli oldi-sotdi shartnomasi”**

Mazkur oldi-sotdi shartnomasi loyihasiga ko`ra ”RAXMON” MCHJ Pastdarg`om tuman Maktabgacha ta`lim bo`limiga 2022 yil 31 dekabrga qadar mazkur shartnomaning 1.1 bandida ko`rsatilib o’tilgan maxsulotlarni etkazib beradi, tuman Maktabgacha ta`lim bo`limi esa o’z vaqtida ya’ni shartnomada belgilangan muddatlarda etkazib berilgan maxsulotlarning to’lovini amalga oshirish majburiyatini o’z zimmasiga oladi.

Shartnomaning umumiyligi summasi (QQS bilan) 564.740.000 (Besh yuz oltmishto`rt million yetti yuz qirq ming) so’mni tashkil qiladi.

Shartnomada shartnoma predmeti, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosi, shartnomaning bajarilish muddatlari, hisob-kitob qilish tartibi, taraflarning majburiyatları, shartnoma majburiyatları bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi hamda taraflarning rekvizitlari va shartnoma tuzilgan sana va joy belgilab o’tilgan.

Tuman Maktabgacha ta`lim bo`limi tomonidan mebel va jihozlarni xarid qilish uchun O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to’g’risida”gi qonuniga muvofiq xarid.uzex.uz elektron tizimiga №86647-sonli lot bilan e’lon joylashtirilgan. Ushbu lot bo`yicha tanlov komissiyasining qaroriga ko`ra ”RAXMON” MCHJ tanlov g’olibi deb topilgan.

Ushbu shartnoma loyihasi O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to’g’risida”gi qonun talablariga muvofiq tanlov asosida tanlov komissiyasining qaroriga ko`ra tuzilmoqda.

Mazkur shartnomaning shartlariga korrupsiyaga qarshi qo’shimcha shartlar kiritilgan.

” RAXMON” MCHJ Nizomining 3.2 bandiga ko`ra MCHJ chakana va ulgurji savdo hamda mebel va jihozlar ishlab chiqarish va sotish faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega.

” RAXMON” MCHJ 01.03.2013 yil №03377-sonli raqam bilan yuridik shaxs sifatida (tadbirkorlik subyekti) davlat ro`yhatidan o’tkazilib, unga davlat ro`yxatidan o’tkazilganligi to’g’risida guvohnoma berilgan (STIR 202190272).

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot**  
Shartnoma loyihasi Pastdarg'om tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi  
tomonidan 06.06.2022 yilda ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul  
qilish maqsadga muvofiq.

**Pastdarg'om tuman yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:**



E.Kiyamov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 84647 на приобретение Пастдаргом туман МТБ мебеллар туплами**

Способ проведения электронный

Дата 27.05.2022

Время рассмотрения 27.05.2022 18:03

Конкурсная комиссия Пастдаргом туман мактабгача таълим булими, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	DJURAYEV SHERZOD SHAVKIDINOVICH	Уқитишни мукобил шакилларни ташкил этиш шуба мудири	Пастдаргом туман мактабгача таълим булими
<b>Секретарь комиссии</b>	OLMOSOV SODIQJON ALIYEVICH	Давлат харидлари ва шартномалар буйича	Пастдаргом туман мактабгача талим булими
<b>Член комиссии</b>	GAFUROV UCHQUN MUXIDDINOVICH	Махсус тамирлаш экспулатация хизмати бошлиги	Пастдаргом туман мактабгача таълим булими
<b>Член комиссии</b>	AXMADOV AZIZJON ABDULLO O'G'LII	Таълим тарбия сифатни таъминлаш ва методик хизмати	Пастдаргом туман мактабгача таълим булими
<b>Член комиссии</b>	MO'MINOV ABROR FAXRITDIN O'G'LII	Пайвантчи	Пастдаргом туман мактабгача таълим булими
<b>Член комиссии</b>	SALOMOV FAYOZJON FURKATOVICH	АКТ	Пастдаргом туман мактабгача таълим булими

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 27.05.2022 года № лота 84647.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 30

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Детская кровать</b>
Подробное описание	Кроват детский
Количество товара	205.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1 350 000.00
Стартовая сумма	276 750 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Стол медицинский</b>
Подробное описание	Стол 1-но тумбовый
Количество товара	7.00
Единица измерения	

Цена товара (услуги) за единицу	850 000.00
Стартовая сумма	5 950 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Набор детской мебели</b>
Подробное описание	Набор игровой мебели "Кухня"
Количество товара	3.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1 500 000.00
Стартовая сумма	4 500 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Набор детской мебели</b>
Подробное описание	Набор игровой мебели "Доктор"
Количество товара	3.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1 500 000.00
Стартовая сумма	4 500 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Набор детской мебели</b>
Подробное описание	Набор игровой мебели "Парикмахерская"
Количество товара	3.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1 500 000.00
Стартовая сумма	4 500 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Набор детской мебели</b>
Подробное описание	Набор игровой мебели "Мальвина"
Количество товара	3.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1 500 000.00
Стартовая сумма	4 500 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Набор детской мебели</b>
Подробное описание	Набор игровой мебели "Супермаркет"
Количество товара	3.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1 500 000.00
Стартовая сумма	4 500 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Стеллаж офисный</b>
Подробное описание	Стеллаж для игрушек
Количество товара	45.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1 500 000.00
Стартовая сумма	67 500 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Стул на металлическом каркасе</b>
Подробное описание	Стул п/м турон
Количество товара	8.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	100 000.00
Стартовая сумма	800 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Стул детский для дошкольных учреждений</b>
Подробное описание	Стул детский
Количество товара	335.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	90 000.00
Стартовая сумма	30 150 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Шкаф для одежды из МДФ</b>
Подробное описание	Шкаф для одежды 5-секционный
Количество товара	78.00

Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1 350 000.00
Стартовая сумма	105 300 000.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Стол детский для дошкольных учреждений
Подробное описание	Стол-стул
Количество товара	126.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	700 000.00
Стартовая сумма	88 200 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Корхона ишалб чикарган махсулотни ва мибел жихозларни сифатига 18 ой муддатга тулалигича кафолатлаш хамда курсатилган манзилда етказиб урнатиш керак.

Тип: Текстовое значение

Описание: кафолат хати

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MEBEL-D	30	Маълумот биринчирилди	28	Экспертная		
GO'ZAL ISHONCH MEBEL XUS KORX	30	20	28	Экспертная		
Raxmon MCHJ	30	хужжат тақдим килинди	30	Экспертная		
ООО Asia universal productio	30	Мавжуд	28	Экспертная		
MCHJ "Davr E zoz Baraka"	30	Корхона ишлаб чикарган махсулотини ва мебель жихозларни сифатига 18 ой муддатга тулалигича кафолатлади, хамда курсатилган манзилда етказиб бериб, урнатиб беради	20	Экспертная		

Критерий №2 Ташкилот ва корхонанинг ишлаб чикарувчининг молиявий натижаси ва баланс тугрисида маълумоти 2021 йил якуни билан

Тип: Текстовое значение

Описание: маълумотнома

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MEBEL-D	33	Маълумотнома бириктирилди	33	Экспертная		
GO'ZAL ISHONCH MEBEL XUS KORX	33	20	10	Экспертная		
Raxmon MCHJ	33	хужжат тақдим килинди	33	Экспертная		
ООО Asia universal productio	33	Мавжуд	33	Экспертная		
MCHJ "Dayr E zoz Baraka"	33	Корхонанинг молиявий натижаси ва баланс тугрисида маълумоти 2021 йил якуни билан мавжуд ва илова килинган	33	Экспертная		

Критерий №3 Корхонанинг 2022 йил шу кунгача банк пул маблаги айланмаси 3 миллиардан ортик булиши керак.

Тип: Текстовое значение

Описание: банк маълумотномаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MEBEL-D	35	Маълумотнома бириктирилди	15	Экспертная		
GO'ZAL ISHONCH MEBEL XUS KORX	35	20	35	Экспертная		
Raxmon MCHJ	35	хужжат тақдим килинди	35	Экспертная		
ООО Asia universal productio	35	Мавжуд	0	Экспертная		
MCHJ "Dayr E zoz Baraka"	35	Корхонанинг 2022 йил шу кунигачан, банк пул маблаги айланмаси 3 миллиардан ортик	0	Экспертная		

Критерий №4 Етказиб берувчи ташкилот корхона мибель ишлаб чикириш тугрисида Сертификати мавжудлиги иловаси билан биргаликда .

Тип: Текстовое значение

Описание: сертификат

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MEBEL-D	36	Маълумотнома бириктирилди	25	Экспертная		
GO'ZAL ISHONCH MEBEL XUS KORX	36	20	25	Экспертная		
Raxmon MCHJ	36	Хужжат тақдим килинди	25	Экспертная		
ООО Asia universal productio	36	Мавжуд	25	Экспертная		
MCHJ "Davr E zoz Baraka"	36	Етказиб берувчи корхонанинг мибель ишлаб чикириши тугрисида Сертификати мавжуд ва илова килинган	25	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО Asia universal productio	597 150 000.00	567 190 000.00	24.05.2022 15:54:06	14.83
ООО MEBEL-D	597 150 000.00	468 809 230.00	23.05.2022 12:47:57	17.95
MCHJ "Davr E zoz Baraka"	597 150 000.00	420 705 000.00	24.05.2022 15:54:57	20.00
Raxmon MCHJ	597 150 000.00	564 740 000.00	24.05.2022 14:08:52	14.90
GO'ZAL ISHONCH MEBEL XUS KORX	597 150 000.00	426 145 000.00	23.05.2022 14:21:01	19.74

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО Asia universal productio	51.3432	14.83471	66.17791
ООО MEBEL-D	60.2984	17.94781	78.24621
MCHJ "Davr E zoz Baraka"	46.5672	20	66.5672
Raxmon MCHJ	73.4328	14.89907	88.33187
GO'ZAL ISHONCH MEBEL XUS KORX	58.5072	19.74469	78.25189

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 84647 от 27.05.2022 года на приобретение Пастдаргом туман МТБ мебеллар туплами определила победителем:

Raxmon MCHJ  
202190272

и резервный исполнитель: GO'ZAL ISHONCH MEBEL XUS KORX (302886296)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	GAFUROV UCHQUN MUXIDDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	SALOMOV FAYOZJON FURKATOVICH	Согласен	
Член комиссии	AXMADOV AZIZJON ABDULLO O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	MO'MINOV ABROR FAXRITDIN O'G'LI	Согласен	
Председатель комиссии	DJURAYEV SHERZOD SHAVKIDINOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП